60410500 – "Bank ishi va audit ta'lim" kunduzgi ta`lim yo'nalishi bitiruvchilari uchun "Moliya" fanidan 2025/2026-o'quv yili 2-semestrida yakuniy imtihon (test)da tushadigan savollar ro'yxati.

1. Zamonaviy sharoitda moliya deganda nima tushuniladi?
2. Xo'jalik sub'ektlari darajasida tuzilgan pul fondlari nima deb ataladi?
3. Ixtisoslashgan moliyaviy vositachilarga xos bo'lgan deyarli barcha moliyaviy funksiyalarni bajaruvchi tashkilotlar qanday ataladi?
4. Uy xo'jaliklari va firmalarga alohida turdagi shartnomani sotib olish orqali risk darajasini kamaytirish imkoniyatini taqdim etuvchi moliyaviy vositachi tashkilot to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
5. Moliyaning bosh yoki asosiy funksiyasi keltirilgan javobni toping
6. Olinayotgan mablag'lar bo'yicha va'da qilinayotgan daromadlik stavkasi nima deb ataladi?
7. Kreditning har qanday turi yoki qayd qilingan daromadga ega vosita bo'yicha foiz stavkasi miqdori qanday omillarga bo`g'liq?
8. Tijorat banklari faoliyati ustidan nazorat olib boruvchi organni ko'rsatinig?
9. Pul massasining tovar aylanmasi ehtiyojlariga nisbatan ortib ketishi natijasida pul birligining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o`sishi nima deb ataladi?
10. Moliyaviy siyosat nima?
11. Sug`urta kompaniyasi tomonidan xizmat ko'rsatilgani uchun sug'urtalanuvchi tomonidan to'lanadigan pullar nima deyiladi?
12. Daromadi va'da qilingan daromad stavkasida beriladigan moliyaviy instrument ko'rsatilgan javobni aniqlang.
13. Unitar davlatlarda byudjet tizimi qanday bo'g'inlardan iborat?
14. Moliyaviy resurslarning bozor orqali o'tadigan qismi nima deb ataladi?
15. Korxonaning oxirgi moliyaviy natijasi bu?
16. Keltirilgan qiymatni aniqlash nima deb ataladi?
17. Quyidagilardan qaysi biri moliyaviy siyosatning tarkibiy qismiga kirmaydi?
18. Qayd qilingan daromadga ega instrument bo'yicha qarzning asosiy summasi yoki foizning qandaydir bir qismi qarz oluvchi tomonidan to'lanmaslik ehtimolini ifodalaydigan risk turi qanday ataladi?
19. Agar aksiya egasi kursning tushishi tufayli zarar ko'rayotgan bo'lsa, bu narsa nima deb ataladi?
20. Kompaniya passivlarining tarkibini ko'rsating.
21. Biznesni olib borishning asosiy tashkiliy shakllari nechta?
22. Moliyaviy boshqaruv tizimidagi eng asosiy element nima?
23. Investitsion loyihalarda yoki kreditni qaytarish sxemasida bo'lajak pul tushumlari yoki to'lovlari yildan yilga o'zgarmay qolishi nima deb ataladi?
24. FV- nima?
25. PV- nima?
26. Moliyaviy tizim nimalarni o`z ichiga oladi?
27. Kompaniya aktivlarining tarkibini ko'rsating.
28. Moliyaviy vositachilarning asosiy tarkibini aniqlang?

29. Asosiy ishi moliyaviy xizmatlar taqdim etish va moliyaviy mahsulotlar savdosidan iborat bo`lgan firmalar nima deyiladi?

30. Kapitalning asosiy ishlab chiqarish vositalarini o‘z ichiga oluvchi, iqtisodiy jihatdan o‘z qiymatini ishlab chiqarilgan tovarlarga asta-sekin va uzoq muddatda o‘tkazib boruvchi qismi qanday ataladi?

31. Ma’naviy eskirishini inobatga olgan holda mehnat vositalari boshlang‘ich qiymatini to‘liq tiklash vaqti nima deb ataladi?

32. Investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan moliyaviy resurslarda ehtiyojlaridan daromadlari ko`proq firmalarni qanday ataymiz?

33. Kelgusi sarmoyalar uchun resursi yetishmaydigan firmalarni qanday ataymiz?

34. Moliyaviy siyosatning yo‘nalishlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

35. Markazlashmagan pul fondlari qaysi doirada vujudga keladi?

36. Moliya bozori tarkibini belgilang

37. Firma mulkdorlari tomonidan uning aktivlari qismiga qo‘yiladigan talab nima deyiladi?

38. Aksiyani sotib olish va sotish qayerda amalga oshiriladi?

39. Bahosi boshqa aktivlar, masalan, aksiyalar, qayd qilingan daromadga ega qimmatli qog‘ozlar, xorijiy valyuta yoki qandaydir mahsulotlar bahosiga bog‘liq bo‘lgan moliyaviy vositalarga aytiladi?

40. Aksiyaning qanday turlari mavjud?

41. Iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan barcha narsalar nima deyiladi?

42. Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy metodologik prinsiplaridan biri keltirilgan javobni toping.

43. Bino, inshoot, mashina uskunalari va ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan boshqa zarur resurslar firmaning qanday kapitali hisoblanadi?

44. Ushbu olim qayd qilganidek, “Har bir individ o‘zining kapitalini eng ko‘p foyda keltirishi uchun ishlatishga harakat qiladi. Uning niyatiga, qoidaga ko‘ra, umumiy manfatlarga xizmat qilish kirmaydi, va u odatda ularni qondirishga qanchalik yordam berayotganini bilmaydi. Uni faqat o‘zining xavfsizligi va foyda tashvishga soladi. Biroq mutloq o‘zining foydasi uchun harakat qilayotgan individ, uning maqsadiga kirmaydigan natijaga ko‘rinmas qo‘l (invisible hand) tomonidan yo‘llanadi. O‘z manfaatlari izidan borib, u ko‘pincha haqiqatda qilmoqchi bo‘lganidan ko‘ra ko‘proq jamiyatning rivojlanishiga samaraliroq yordam beradi”

45. Hudud nuqtai nazardan moliyaviy siyosatning qanday shakllari mavjud?

46. Minimal harajat qilib maksimal samaraga erishish va moliyaviy resurslarni yuqori samara olish uchun qayta taqsimlashga qaratilgan kompleks ishlar yig‘indisi nima deb ataladi?

47. Mamlakat moliyaviy resurslari o’sishining asosiy sharti?

48. Moliya – bu, eng avvalo:

49. Qattiq foizli qimmatli qog‘ozlar?

50. Moliyaning asosiy funksiyalarini ko‘rsating.

51. Davlat kreditida davlat kim sifatida ishtirok etadi?

52. Aksiyani sotib olish va sotish qaysi bozorda amalga oshiriladi?

53. Moliyaning eng asosiy va muhim xarakteri nimada namoyon bo‘ladi?

54. Moliyaning rivojlanishini nechta asosiy bosqichga bo‘lish mumkin?

55. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining qaysi bo’g’iniga mansub?

56. Moliya yordamida.....

57. "Moliya" qaysi tildan olingan va o'zbek tilida qanday ma'noni anglatadi?

58. Qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchilar qanday ataladi?

59. Moliyaviy munosabatlar jarayonlari nimada namoyon bo'ladi?

60. Fyuchers va opsion kelishuvlarida narx va foyda xavf-xatarini sug'urta qilish shakli?

61. Uy xo'jaliklarida iste'mol maqsadlari va jamg'arish uchun pul mablag'lari fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va foydalanishga tegishli bo'lgan iqtisodiy munosabatlar majmuiga nima deyiladi?

62. Takror ishlab chiqarish jarayoni qaysi bosqichlarni o'z ichiga oladi?

63. Dastlabki moliyaviy nazorat qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi?

64. Davlatning oliy moliyaviy nazorat organi qaysi?

65. Moliyaviy resurslarni jamlash, ularni davlatning o'z funksiya va vazifalarini amalga oshirish uchun taqsimlash va ishlatish shakl hamda usullarida tizimli namoyon bo'luvchi tadbirlar yig'indisi nima deb ataladi?

66. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti qanday byudjetlarni o'z ichiga oladi?

67. Moliyaviy nazoratning predmeti keltirilgan javobni toping.

68. Bu bitta odam yoki oilaga tegishli firma bo'lib, unda barcha aktivlar va majburiyatlar bir vaqtning o'zida firma egasining mulki hisoblanadi.

69. Yakka mulkdor firmaning qarzlari va boshqa majburiyatlari bo'yicha ... ega bo'ladi

70. Bu ikki va undan ko'p kishi (oila) mulki bo'lgan firma.

71. Bu mustaqil yuridik shaxs bo'lib, u o'z egalaridan alohida faoliyat yuritadi.

72. Aksiya egalari qanday shaklda daromad ko'radilar?

73. Quyidagilardan qaysi biri moliyaviy bozorlar tarkibiga kirmaydi?

74. Qarz instrumentlarini yana nima deb ham atashadi?

75. Qaysi korxonalar valyuta riskiga ko'prok duch keladi?

76. Har qanday moliyaviy munosabatning moddiy asosi nima hisoblanadi?

77. Aksiya - bu?

78. Moliyaviy tizimda moliyaviy xizmatlar taqdim etuvchilarga quyidagilardan kimlar kirmaydi?

79. Foiz hisoblash natijasida dastlabki summaning ortib borish jarayoni nima deb ataladi?

80. Quyidagilardan qaysi biri moliyaviy vositachilar hisoblanmaydi?

81. Sug'urta mukofoti nima?

82. Pul oqimlari to'g'risida hisobot nima?

83. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot nima?

84. Balans nima?

85. Mamlakat miqyosida moliyaviy ahvolning keskin yomonlashganligi nimalarda namoyon bo'ladi?

86. Moliyaning ahvoli nimani belgilab beradi?

87. Moliya va moliyaviy munosabatlarning mohiyati haqidagi tasavvurlar vaqt o'tishi bilan o'z ko'rinishini o'zgartirib borganmi?

88. Quyidagilardan qaysi biri moliyaning xarakterli belgisi hisoblanadi?

89. Davlat moliyasining asosiy bo'g'inlarini ko'rsating.

90. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining qaysi bo'g'iniga mansub?

91. Xarajatlar smetasi nima?

92. Moliyada boshqariladigan (ob'ektlar) va boshqaruvchi (sub'ektlar) tizimlarning yagonaligi nima deb ataladi?

93. Moliyaviy boshqaruvning markaziy organi keltirilgan javobni toping

94. XYUSning pul mablag'lari va moddiy resurslarining pulli bahosi aralashadigan ko'rsatkich qanday ataladi?

95. Agar yuridik shaxs (byudjet tashkilotlaridan tashqari) 1 oktyabrdan keyin ro'yxatga olingan bo'lsa, birinchi hisobot yili qachon tugaydi?

96. Moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlari qaysi organ tomonidan belgilanadi?

97. Qaysi holatda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda yakuniy moliyaviy hisobot tuziladi?

98. Moliyaviy hisobotlar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan funksiyalar nechta bo'ladi?

99. Asosiy xo'jalik jamiyati bo'lgan va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga, o'z nazorati ostidagi tashkilotlarga ega buxgalteriya hisobi sub'ekti qanday moliyaviy hisobotni tuzadi?

100. Sog'lom ishlayotgan korxonalar uchun to'lovga qobillik koeffitsiyenti doimo qanday bo'lishi kerak?

101. Makrodarajada moliyaviy ahvolni xarakterlaydigan ko'rsatkichni toping?

102. Tijoriy korxonalarining moliyaviy resurslari dastlab (birlamchi holda) ular qanday shaklda hosil qilinadi?

103. Korxonada aylanma mablag'larni shakllantirish va moliyalashtirishning o'z manbalari tarkibiga kiradigan elementni toping?

104. Sof foyda nolga teng bo'lganda sotish hajmi qanday tushiniladi?

105. Moliyaviy risklarni kamaytirishning limitlashtirish usuli

106. Davlat bilan korxona, tashkilot, muassasalar va aholi o'rtasidagi davlat markazlashgan pul fondining shakllanishi yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy pul munosabatlar nima deb ataladi?

107. Byudjet daromadlarining asosiy moddiy manbai nima?

108. Davlatning markazlashtirilgan pul fondlari mablag'larini turli yo'nalishlar bo'yicha foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar nima deb ataladi?

109. Moliyaviy tizimning nechta turi farqlanadi?

110. Federativ asosda tarkib topgan davlatlarda necha pog'onali byudjet tizimi amal qiladi?

111. Moliya tizimining qaysi sohasida daromadlarning asosiy qismi shakllanadi va ular davlat tomonidan o'rnatilgan qoidalarga muvofiq ravishda qayta taqsimlanib, barcha darajadagi byudjetlar va nobyudjet fondlarining daromadlarini shakllantiradi?

112. Moliya atamasi qachon va qayerda paydo bo'lgan?

113. Moliya atamasini ilk marta o'z asarida qo'llagan olim kim?

114. Sub'ektlar tomonidan pul resurslaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan taqsimlash munosabatlari tizimi nima deb ataladi?

115. Moliyaning o'ziga xos belgilari keltirilgan javobni toping.

116. Hujjatlar asosida tekshiruv qanday ataladi?

117. Soliq, bojxona va byudjet nazorati qanday nazorat?

118. Jamoatchilik nazorati bu?

119. Vazirlik miqyosida o`tkaziladigan moliyaviy nazorat bu?

120. Moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so'ng davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat bu?

121. Moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat bu?

122. Moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g'aznachilik bo'linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat bu?

123. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq qaysi organga nazorat vakolati berilgan?

124. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida qanday prinsiplarga asoslanadi?

125. O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonuni nima maqsadda qabul qilindi?

126. Hisob Palatasi o'z zimmasiga yuklatilngan vazifalarni qanday tamoyillar asosida amalga oshiradi?

127. O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi bu?

128. Yagona soliq-byudjet siyosatini tashkil etish qaysi organga yuklatilgan?

129. Moliyaviy nazorat subyektlarini ko'rsating.

130. Moliyaviy nazoratning maqsadi nima?

131. Quyida keltirilgan asosiy vositalar ta'riflarining qaysi biri to'g'ri?

132. Quyidagi javoblarning qaysi birida investitsiyalarga misol keltirilgan?

133. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'payganda o'zgaruvchan xarajatlarning doimiy xarajatlarga nisbati qanday o'zgaradi?

134. Qaysi hollarda doimiy xarajatlar o'zgaradi?

135. Aktivlarning qaysilari «joriy» deb ataladi?

136. Qaysi korxonada tushum kamayib ketishidan salbiy oqibatlar yuzaga kelishi xavfi yuqoriroq?

137. O'zgaruvchan xarajatlar nega shunday deb ataladi?

138. Doimiy xarajatlar nega shunday deb ataladi?

139. Qaysi holatda mahsulot birligiga to'g'ri keladigan doimiy xarajatlar ko'payadi?

140. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'payganda quyida sanab o'tilgan xarajatlardan qaysi biri kamayadi?

141. "Moliya" tushunchasi qisman qanday munosabatlarni bildiradi?

142. Takror ishlab chiqarish jarayonining har bir ishtirokchisi o'ziga tegishli bo'lgan daromadni nechta qismga bo'ladi?

143. Moliyaning qaysi funksiyasi asosini moliyaviy resurslarning harakati tashkil etadi?

144. Byudjet daromadlari davlatning daromadlariga nisbatan qanday tushuncha?

145. Bu davlatning o'z funksiyalarini va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan hamma yo'nalishlar, chora va tadbirlar yig'indisidir.

146. Bu xo'jalik yuritishning tamoyillari va shakllari, iqtisodiyotni rivojlantirish vazifalarini yechishdagi usullar, chora-tadbirlar va faoliyatlar yig'indisidir.

147. Davlat faoliyatining nisbatan mustaqil sohasi bo'lib, jamiyat faoliyatini ixtiyoriy jabhalarida davlat siyosatini amalga oshirishda zaruriy moliyaviy mablag'larni manbai hisoblanadi.

148. Bu YAIM va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektrlar va davlatning qo'lidagi u yoki bu vaqtda bo'lgan pul daromadlari va jamg'armalari yig'indisidir.

149. Davlatning moliyaviy faoliyati va moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yor, qoida va qonunlar yig'indisi nima deb ataladi?

150. Moliyaviy tizimning qaysi funksiyasi mamlakat xazinasini to'ldirish uchun xizmat qiladi?

151. Davlat korxonasining muassisi kim bo'ladi?

152. Opsionning qanday turlari mavjud?

153. Kontraktda ko'rsatilgan narx va vaqt bo'yicha ma'lum bir aktivlarni bir tomon sotib olish majburiyatini, ikkinchi tomon esa sotish majburiyatini oluvchi vositalar nima deb ataladi?

154. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va birlamchi joylashtirilishi qaysi bozorda amalga oshiriladi?

155. Moliya puldan o'zining mazmuni va bajaradigan funksiyasiga ko'ra farq qiladimi?

156. Korxonalarning moliyaviy barqarorligiga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi ichki omilni toping.

157. Korxonalarning moliyaviy barqarorligiga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi tashqi omilni toping.

158. Moliyaviy barqarorlikning qaysi turida uning asosiy sharti noto'lovlar va ular kelib chiqish sabablarining mavjud emasligi bo'lib hisoblanadi?

159. Moliyaviy barqarorlikning qaysi turi ichki va tashqi moliyaviy intizomning buzilmasligini taqozo etadi?

160. Krizisli moliyaviy holatning nechta darajasi mavjud?

161. Kompaniya barqaror faoliyat yuritishi va tashqi moliyalashtirish manbalaridan mustaqilligi nima deb ataladi?

162. Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

163. Korxonaning sof aktivlari qanday aniqlanadi?

164. Qaysi ko'rsatkich yordamida yordamida ho'jalik sub'ekti aktivlarining naqd pulga aylanish darajasi baholanadi?

165. Foiz stavkasiga ta'sir ko'rsatuvchi omilni toping.

166. Asos foyda nima?

167. Foydaning qaysi turi nomenklatura pozitsiyalari bo'yicha miqdor va tannarx aniq ma'lum bo'lmaganda, keng assortimentli buyumlar tayyorlovchi XYUSlarda qo'llaniladi?

168. Korxona ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatning barcha turlari bo'yicha olingan foydaning umumiy summasi qanday ataladi?

169. Operatsion davr mobaynida olingan tushumdan barcha chegirmalar va harajatlar chiqarilganidan so'ng vujudga keladigan foyda turi qanday ataladi?

170. Quyidagilardan qaysi biri moliyaviy aktiv hisoblanmaydi?

171. Biznesning oltin qoidasi hisoblangan fikr to‘g‘ri keltirilgan javobni belgilang

172. Foiz hisoblash natijasida dastlabki summaning ortib borish jarayoni nima deb ataladi?

173. Diskontlash tushunchasi nimani anglatadi?

174. Oddiy foiz stavkalari bo‘yicha mablag‘lar kelgusi qiymatini aniqlash formulasi to‘g‘ri keltirilgan javobni belgilang?

175. Moliyaviy rejalar tizimining markazini nima tashkil etadi?

176. Moliyaviy rejalashtirishda foydalaniladigan usullardan biri keltirilgan javobni toping.

177. Bozor ho’jaligining tartibga soluvchilaridan biri keltirilgan javobni toping.

178. Takror ishlab chiqarish parametrlarini o’zgartirish uchun moliyaviy munosabatlarning barcha yo’nalishlaridan foydalanish bo’yicha davlat tomonidan tashkil qilinadigan faoliyat qanday ataladi?

179. Moliyaviy resurslarning muvozanatini va mutanosibligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat nima deb ataladi?

180. Rejalashtirishning tamoyillari keltirilgan javobni belgilang.

181. Bu davlatning o‘z vazifa va funksiyalarini bajarish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta’minlash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan, davlat tomonidan tashkil qilinadigan pul munosabatlari yig‘indisidir.

182. Yoshga doir pensiya olish huquqi

183. Sug‘urta sohalari:

184. Sug‘urta shakllari?

185. Hayot sug‘urtasi, sog‘liqni sug‘urtalash, baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash va tibbiy sug‘urta qaysi sug‘urta tarmog‘iga kiradi?

Moliya kafedrasi mudiri **J.R.Zaynalov**